# MAKTAB O‘QUVCHILARIDA CHET TILLARNI O‘QITISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

**Muhammadjonova Shodiyaxon Bahodirjon qizi**
*Qo‘qon Davlat Pedagogika Instituti 3- kurs talabasi*
**Muhammadjonova O‘g‘iloy Baxodirjon qizi**
*FarDu 1- kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada, o‘quvchilarda chet tillarini o‘qitishning shaklini rivojlantirish, shuningdek maktab o‘uvchilarida chet tillarini o‘qitishning pedagogik imkoniyatlari va yoshlarga til o‘rgatshning muhum imkoniyatlari haqida keng ma’lumotlar berilib o‘tilgan.*

**Abstract:** *This article provides extensive information about the development of the form of teaching foreign languages to students, as well as the pedagogical possibilities of teaching foreign languages to schoolchildren and the important possibilities of teaching languages to young people.*

**Аннотация:** *В данной статье представлена обширная информация о развитии формы обучения студентов иностранным языкам, а также о педагогических возможностях обучения школьников иностранным языкам и важных возможностях обучения языкам молодежи.*

**Kalit so‘zlar:** *xorijiy til, zamonaviy pedagogika, o‘yin texnologiyalari, axbarot-kommunikatsiya hizmatlar, writing, speaking, CEFR.*

**Key words:** *foreign language, modern pedagogy, game technologies, information and communication services, writing, speaking, CEFR.*

**Ключевые слова:** *иностранный язык, современная педагогика, игровые технологии, информационно-коммуникативные услуги, письмо, говорение, ЦЭФР.*

Bugungi kunda mamlakatimizda til masalasiga katta e’tibor qaratimoqda va yoshlarga bu borada keng imkoniyatlar yaratilib berilmoqda. Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitishning ilg‘or usullarini joriy etish yo‘li bilan o‘sib kelayotgan yosh avlodga chet tillarni o‘rgatish, o‘rgangan tilda erkin so‘zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon tamadduni yutuqlari va dunyo axborot resurslaridan keng ko‘lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik hamda muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda. Xorijiy tillarni muvaffaqiyatli o‘rganish keng qamrovli usullarni talab qiladi. Muloqotga kirishishning miqdori va sifati tilni tezroq o‘rganishning asosiy sabablari hisoblanadi. Dars jarayonida o‘quvchilarning e’tibori asosan tilning mazmuniga, ahamiyatiga qaratilishi kerak. O‘quvchilar e’tiborini birinchi navbatda tilning kontent mazmuniga qaratishi kerak. Xorijiy tillarni muvaffaqiyatli o‘rganish yana o‘rganganlarni qo‘llash uchun imkoniyat bor-yo‘qligiga ham bog‘liqdir. O‘quvchilarga shunday vazifalar berish

kerakki, toki ular oʻrgangan bilimlarini dars jarayonida amaga oshirish, qoʻllashga majbur boʻlishsin. Oʻzaro muloqot qilish imkoniyatlari til koʻnikmalarining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy munosabat, ayniqsa oʻquvchilar tilning ma'nosini amalda qoʻllay olishsa, tilni oʻrganish muvaffaqqiyatli oʻrganishga imkon yaratadi. Oʻqituvchi tomonidan ushbu jarayon uchun ma'no va muzokaralar oʻtkazish imkoniyati muvaffaqiyatli oʻqitishning asosiy shartlari hisoblanadi. Chet tili ta'limi, birinchi navbatda, chet tilidagi kundalik uchraydigan, real bilim va koʻnikmalrni oʻrganishga chorlashi kerak, lekin aniq bilimlarni ham rivojlanishiga beparvo qaramaslik kerak.

Agar biz chet tili ta'limida qoʻllaniladigan metodik-didaktik qarashlarga toʻxtaladigan boʻlsak, quyidagilarni ta'kidlab oʻtishimiz talab etiladi. Hozirgi kunda ingliz tilini oʻrganishning ahamiyati Oʻzbekistonda avvalgiga qaraganda ancha yuqori boʻlib bormoqda. Bir qancha ingliz tili mutaxassislari ingliz tilini oʻrganishni yangi metod va yoʻllarini hayotga tadbiq qilishmoqda. Bu albatta chet tillarni oʻqitish samaradorligini yanada oshiradi. Texnologiyalardan foydalanib, oʻqitishning bir qancha oʻziga xos afzalliklari mavjud. Bundan tashqari, u oʻqitish tizimini ancha samaradorligini oshiradi va oʻz navbatida til oʻrganiyotgan oʻquvchini zamon bilan hamnafas boʻlib, olgʻa intilishiga koʻmaklashadi. Texnologiya asta sekinlik bilan an'anaviy oʻqitishning oʻrnini egallamoqda. Bugungi kunda televizion dasturlarda bir qancha ingliz tilini oʻrgatishga koʻmaklashuvchi yangi dastur va koʻrsatuvlar muntazam ravishda uzatilib kelinmoqda. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, bugungi kunda oʻqitishning samaradorligini oshirish uchun Oʻzbekistonda yangi zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanishning yangi metodlari joriy qilindi. Misol uchun, multimediya asosida chet tili oʻrgatilayotgan oʻquvchida toʻrt koʻnikmani rivojlantirish, qiziqarli materiallar orqali ham koʻrib, ham eshitib oʻrganish imkoniyati paydo boʻldi.

Bundan tashqari oʻquvchi jonli harakatlarni koʻrib ba'zi soʻzlarning ma'nosini taxmin qila oladi va uni tushinishga harakat qiladi. Albatta har qanday chet tili darslarida zamonaviy texnologiyalar komputer, radio, CD, DVD qoʻllash ta'lim jarayonini yanada olgʻa siljib, oʻsib kelayotgan yosh avlodga chet tillarni tezroq oʻrganish imkonini beradi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan soʻng, chet tillarini oʻrgatishga qiziqish oshdi va yoshlar uchun koʻplab imkoniyatlar yaratib berildi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, "Hozirgi paytda xorijiy tillarni oʻrgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyati oʻziga munosib oʻrin egallashga intilayotgan mamlakatlarimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda oʻz buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yoʻqdir".

Ushbu fikrlarning mantiqiy davomi sifatida 2012 yil 10- dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini" oʻrgatish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari toʻgʻrisida"gi Prezident Qarori chet tillarini oʻrganish imkoniyatlarini kengaytirdi. Respublikamizda

chet tilining oʻqitilishi, chet tili oʻqituvchilarining bilim va koʻnikmalarini baholashning umumevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga koʻra umumtaʼlim maktablari va kasb-hunar kollejlari oʻquvchilari uchun darsliklar yaratildi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib oʻrgatish va oʻrganish eng samador usullardan biridir. Ingliz tili darslari davomida baʼzi oʻqituvchilarning texnologiyalarni qo'llashni bilmasliklari va foydalanmasliklari, o'quvchilarning bir muncha zerikishlariga olib keladi. Aynan shu sababli ya'ni o'rganuvchining ishtiyoqini soʻndirmaslik uchun dars davomida texnologiyalardan va kamida komputerdan foydalanish oʻrganuvchining qiziqishini ortib borishini yanada taʼminlaydi. Zero, oʻrganuvchining yoshiga, qiziqishiga, qobiliyatiga, darslarni oʻzlashtirishiga qarab tayyorlangan oʻquv materiallari albatta samara beradi. Aksincha, biz oʻqituvchilar ushbu talablar asosida oʻquv materiallarini tanlamasak, boshlangʻich sinf oʻquvchilariga murakkab soʻzlardan iborat boʻlgan video-filmlar, qoʻshiqlar yoki matnlarni eshittirsak yoki multimedia, komputerlar orqali namoyish etsak, oʻrta va yuqori sinf yoki guruh oʻrganuvchilariga juda ham sodda matnlardan iborat oʻquv materiallarini namoyish etganimizda oʻrganuvchilarning tilni oʻrganishga boʻlgan qiziqishlari asta-sekin soʻna boshlaydi va darslarni oʻzlashtirmay qoʻyishadi. Bu esa oʻz navbatida baholarning pasayib ketishi, oʻqituvchining oʻquvchilar oldida oʻz hurmatini yoʻqotib qoʻyishga olib kelishi mumkin. Demak, bundan kelib chiqadiki dars davomida texnologiyalardan shunchaki foydalish emas, balki ularni oʻz oʻrnida qoʻllay bilish va texnologiyalardan foydalanish oʻquvchi bilimini oshirishga xizmat qilishini taʼminlash asosiy vazifa hisoblanadi.

Hozirgi CEFR ya'ni Xalqaro Yevropa ta'lim standartlarining talablari boʻyicha toʻrtta: (writing, reading, listening, speaking) ingliz tilida yozib, oʻqib, tinglab, soʻzlashib oʻrganish kompitensiyalari boʻyicha olib borilayotgan darslar davomida texnologiyalardan unumli va oʻrinli foydalanish ahamiyatlidir.

Xulosa qilib, aytish mumkunki, xorijiy tillarini oʻrganish oʻquchilar va biz yoshlarga judda katta imkoniyatlar ochadi. "Bolalikda oʻrganilgan bilim hech qachon esdan chiqmaydi" deganlaridek, xorijiy tiilarini ham oʻrgabi boorish kerak zeroki, hozirgi globallashuv zamonida til eng muhum ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR ROʻYXATI:


1. PQ 1875 "Chet tillarni oʻrganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida" gi qaror. "Xalq soʻzi" gazetasi, 2-bet. 2012 yil,10-dekabr
2. Boswood, T. (1997). New Ways of Using Computers in Language Teaching (New Ways in Tesol Series II), California: Teachers of English to Speakers of Other Languages.
3. Harmer, J. (2007). How to teach English, Harlow, Essex: Pearson-Longman

4. Johnson, D., & Eisenberg, M. (2006). Learning and Teaching Information Technology-- Computer Skills in Context, East Lansing, Mi, Eric document ED465377, Retrieved June 7, 2007, from http: // www.ericdigests.org/2003-1/skills.htm.

5. Egamberdiyev, O. A. O., Turdaliyev, A. Y. O., & Maxamadjonov, J. Z. O. (2021). Kasbiy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik asoslari. Science and Education, 2(11), 985-991.

6. Zarnigor, R. A. Q., Egamberdiyev, O. A. O. G. L., & Sotvoldiyeva, O. M. R. Q. (2021). Pedagogik kompetentlikning: nazariy va amaliy tahlili. Science and Education, 2(9), 309-314.

7. Egamberdiyev, O. A. O., Sotvoldiyeva, O. M. Q., & Turdaliyev, A. Y. O. (2021). PEDAGOGIK MAHORATNING MUAMMOLI O'ZLASHTIRISH YO'LLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 535-542.

8. Yusufovich, A. A., & O'G'Li, E. O. A. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOIK ASOSLARI. Science and innovation, 1(B3), 40-46.

9. Alisher o'g'li, E. O. (2022). O 'ZBEKISTONDA MADANIYAT VA SAN'AT TARIXI MASALALARI. Journal of new century innovations, 14(3), 33-36.

10. Alisher o'g'li, E. O. (2022). O'QUVCHILARNI TANQIDIY FIKRLASHGA O'RGATISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. Journal of new century innovations, 4(1), 52-59.

11. Alisher o'g'li, Y. O. (2022). IJTIMOIY MUHITNING SHAXS RIVOJLANISHIGA TA'SIRI. PEDAGOGS jurnali, 18(1), 220-225.

12. Yusufovich, A. A. (2020). ISSUES OF FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE, WHICH IS AN INTEGRAL PART OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(7).

13. Tojimamatov, J., & Egamberdiyev, O. (2022). THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL HEALTH OF A PERSON.

14. Egamberdiyev, O., Kholdarova, Z., & Khusanova, M. (2022). THE ORDER OF THE APPEARANCE OF THE PEOPLE'S DIPLOMACY OF THE GREAT SILK ROAD COUNTRIES.

15. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). NEED TO FORM CREATIVE COMPETENCE IN EDUCATORS. Educational Research in Universal Sciences, 1(3), 162-165.

16. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL ACTIVITY OF EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. Educational Research in Universal Sciences, 1(3), 166-169.

17. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). DIFFERENT APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF CHILDREN'S SPEECH. Educational Research in Universal Sciences, 1(3), 158-161.

18. Oyatillokh Alishero'g'li, E. (2022). Ways and Methods of Formation of Communicative Competence in Future Teachers. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 63-65.

19. Oyatillokh Alishero'g'li, E. (2022). Ways and Methods of Formation of Communicative Competence in Future Teachers. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 63-65.

20. Iqboljon O'g'li, T. J., & Alisher o'g'li, E. O. (2022). THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL HEALTH OF A PERSON. PEDAGOGS jurnali, 9(3), 4-7.

21. Alisher o'g'li, E. O. (2022). Issues of Retraining and Professional Development of Pedagogical Personnel. The Peerian Journal, 5, 192-194.

22. Yusufovich, A. A., & Alisher o'g'li, E. O. (2022). PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR THE FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(6), 1157-1161.

23. Alisher o'g'li, E. O., & Zokirjon o'g'li, M. J. (2022). The Role of Psychology in the Treatment of Heart Failure in Humans. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 5, 500-502.

24. Ахмедов, А., Эгамбердиев, А., & Сотволдиева, О. (2022). The role of pedagogical technologies in improving the quality of education. Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar, 1(1), 59-60.

25. Alisher o‘g‘li, Y. O. (2022). IJTIMOIY MUHITNING SHAXS RIVOJLANISHIGA TA’SIRI. PEDAGOGS jurnali, 18(1), 220-225.

26. Yusufovich, A. A. (2022). PEDAGOGICAL ASPECTS OF FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. Science and Innovation, 1(4), 136-138.

27. Zokirjon o'g'li, M. J. (2022). PROFESSIONALISM AS A GENERALIZED TYPICAL MODEL OF A PROFESSIONAL IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. Journal of new century innovations, 11(1), 186-189.